

INVESTITSION ARBITRAJNING YURISDIKTSIYASI VA QABUL QILINISHI: AMALIYOT VA NAZARIYA

Saidova Charos

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xususiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsion nizolarni hal qilish vositalari. Xususan, investitsion arbitrajning yurisdiksiya olish masalasi amaliy va nazariy ma'lumotlar asosida ochib beriladi. Shuningdek maqolada arbitraj kelishuvining yurisdiksiya olishdagi ahamiyati ham ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Arbitraj, investitsion nizo, xorijiy investor, yurisdiksiya, arbitraj kelishuvi

KIRISH

Dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari davlatlarning iqtisodi, xo'jaligi hamda huquq tizimiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazdi. Turli davlatlar o'rtasida aloqalarning kuchayishi xorij investitsiyasining kirib kelishiga yo'l ochdi. Shu o'rinda xorijiy investor tushunchasiga tarif berib o'tsak. Chet ellik investorlar — chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.¹ Xorijiy investitsiya bilan bog'liq munosabatlarning vujudga kelishi o'z navbatida bu sohani tartibga solish va kafolatlashni taqazo etdi. Bu sohadagi eng yirik va daslabki global qonun hujjati sifatida 1965 yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington konventsiyasi ko'p jihatdan ushbu soha uchun eng zaruriy dasturi amal bo'ldi. Unda investitsiya munosabatlarini tartibga solish mexanizmi, xususan investitsion nizolarni xalqaro ko'lamda ko'rib chiqish va hal qilish prosedura va tartib qoidlari aks topdi. Bu hujjatga kirar ekanmiz investitsion nizo masalasiga oydinlik kiritib olsak. Chunki muhokam qiladigan mavzuyimiz bevosita ushbu termin bilan bog'liq. Konvenisyaning 25-moddasi, investitsion nizolar toifasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq bo'lgan nizolar Kirishi ta'kidlangan ya'ni:

¹3-modda. O'zR "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni(2019 yil 25 dekabr, O'RQ-598-son) (<https://lex.uz/docs/4664142>)

a) xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq munosabatlardan kelib chiqadigan investitsiya nizolari;

b) Ahdlashuvchi davlat va xorijiy xususiy investor o'rtasida yuzaga keladigan nizolar;

v) tomonlarning mohiyati va ko'lami, qonuniy huquq va majburiyatlari, ushbu investitsiya shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni buzganlik uchun tovon to'lash shartlari va miqdori bilan bog'liq huquqiy nizolar²

Bunday nizolar ko'p holatlarda turli davlat fuqarolari o'rtasida bo'lganligi sababli yurisdiksiya masalasida muamoga duch kelishimiz mumkin. Yurisdiksiya deganda "sud yoki sudyaning da'vo, ariza yoki boshqa sud jarayonini ko'rib chiqish vakolati" tushuniladi³ Ya'ni Ish qaysi sud yoki qaysi vakolatli organ tomonidan ko'rib chiqilish masalasi aniqlanadi. Bunday turdagi ishlarni hal qilishning bir qator usullari mavjud. Bugungi kunda davlatlar tomonidan bunday turdagi nizolarni hal qilishda Milliy sudlar va Xalqaro arbitraj (Investitsion nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz)ga yoki Gagadagi doimiy hakamlik sudiga, ICC ga murojaat etishmoqda. Ba'zi holatlarda esa ad hoc arbitrajlarida nizoni ko'rib chiqishmoqda. Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari nizolarni hal qilish usuli sifatida kelishuv yoki mediatsiya ham tavsiya etiladi. Lekin, bularada ijro majburiyligi to'g'risida masala ochiq qolganligi sababli ko'pincha bundan foydalanmaydi. Nizo taraflari ko'pincha xorijiy investor bo'lganligi bois davlat sudlariga ham ishonchsizlik bildirishadi, bundan tashqari davlat sudlarida xalqaro nizoni ko'rib chiqishga yetarli bilimlar majmuyi va mutaxassislar kam ekanligi ham sir emas. Shu sababli ham, investitsion nizolarni hal qilish vositasi sifatida ko'proq arbitraj sudlari tanlanadi. Uning afzaliklari sifatida maxfiylik, xalqaro huquqni qo'llay olish qobiliyatli kadrlar mavjudligi, tomonlar erkinligi va xohish-irodasini inobatga ko'proq olinishi keltirishimiz mumkin.

Maqolada ham aynan nizolarni investitsion arbitrajlarda ko'rib chiqish masalasi haqida so'z yuritamiz. Investitsion arbitrajlar yurisdiksiy olishda "Lex contractus" tamoyiliga tayanadi. Avvalo "Lex contractus" tamoyiliga to'xtaladigan bo'lsak. Ushbu atama lotin tilidan olingan bo'lib, shartnoma huquqi degan ma'noni bildiradi. Bunda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizoda o'zaro kelishuvdagi huqqa qo'llaniladi. Bu tamoyil bugungi kunda eng ommalashgan va majburiy tus olgan tamoyil hisoblanadi. 1965 yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington

²1965 yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington konvensiyasining 25-moddasi (<https://lex.uz/docs/2669594>)

³ Jon Burk, Jowittning ingliz huquqi lug'ati (Sweet & Maxwell, 1977), jild. 1, 1034; Bryan A. Garner, Black's Law Dictionary (G'arbiy, 1999); Zachari Duglas, Investitsion da'volar bo'yicha xalqaro hu (Kembrij universiteti nashriyoti, 2009)

konventsiyasining 36- moddasida ham investitsion arbitrajga murojaat qilishning muhim sharti etib o'zaro arbitraj kelishuvi bo'lishi aytilgan

Arbitraj kelishuvi» - bu taraflar o'rtasida shartnomaviy yoki noshartnomaviy xarakterdagi muayyan huquqiy munosabat bilan bog'liq yuzaga kelgan yoki yuzaga ko'rib olinishi mumkin bo'lgan barcha yoki muayyan nizolarni arbitrajga topshirish to'g'risidagi kelishuv. Arbitraj kelishuvi shartnomada arbitraj shartlari (izohi) tariqasida yoki alohida arbitraj bitimi tariqasida tuzilishi mumkin. Arbitraj bitimi yozma shaklda tuziladi. Agar bitim taraflar imzolagan hujjatda bo'lsa yoki bunday bitimning qayd etib qo'yilishini ta'minlaydigan xatlar, teletayp, telegraf orqali yoki boshqa elektr aloqa vositalaridan foydalangan holda xabarlar ayirboshlash yo'li bilan yoxud taraflardan biri bitimning mavjudligini tasdiqlaydigan, boshqasi esa bunga e'tiroz bildirmaydigan da'vo arizasini va da'voga javobni ayirboshlash yo'li bilan tuzilgan bo'lsa, u yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Shartnoma shartlarini o'z ichiga olgan hujjatga ishora qilinishi, agar shartnoma yozma shaklda tuzilgan bo'lsa va mazkur ishora zikr etilgan shartlarni shartnomaning bir qismiga aylantirsa, u arbitraj kelishuvi hisoblanadi.⁴ Ushbu tamoyil asosida yurisdiksiya olishning ahamiyati har ikki tomoning xohish irodasiga ko'ra nizoni hal qilish vositasi va usulini tanlashidir. Bu usulda inistitsunal ravishda arbitraj faoliyati bilan shug'illanuvchi arbitrajlar (misol uchun ICSID) yoki ad hoc tarzida tuziladigan arbitrajlarda nizolar hal qilinadi. Inistitsunal arbitrajlar oldindan o'rtanatilgan tartib qoidalar asosida faoliyat olib borsalar, ad hoc tashkil etilish, ishni ko'rib chiqish tartibi, qo'llaniladigan huquqda erkinlikni to'laligicha beradi. Bularning qaysi biri ustunligi jihatiga aniq bir to'xtamga kela olmayman. Har ikki usulning kamchiliklari va yutuqlari haqida alohida qarashlar mavjud. Aytishimiz joiz bo'lgan jihat, har ikki arbitraj turida ham ko'rib chiqishda arbitraj kelishuvi yo shartnomaning o'zida yoki alohida kelishuv shaklida tuzilishi lozim.

Asosiy qism

Endi bevosita bu masalani milliy va xalqaro hujjatlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak. Bugungi kunda investitsion nizolarni hal qilish bir qator hujjatlar orqali tartibga solinadi. Jumladan 1965-yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington konventsiyasi, 1985-yildagi Seul konvensiyasi, davlatlar o'rtasidagi investitsiyani rag'batlantirish va himoya qilsih to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomalar, investor va investitsiya kiritilayotgan davlat o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar va milliy huquq tizimidagi investitsiya sohasidagi qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi. 1965 yildagi Vashington konvensiyasi va 1985-yildagi Seul konvensiyasi dasturul amal bo'lsa, ikki tomonlama "Investitsiyani rag'batlantirish va

⁴ 1958 yil UNCETRAL namunaviy qonun loyhasi

himoya qilish” haqidagi shartnomalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Vashington konvensiyasi asosida “ Investitsion nizolarni hal qiluvchi markaz (ICSID) tashkila etilgan. Seul konvensiyasi asosida esa investitsiyalarni kafolastlashlash masalasi bilan shug’illanuvchi MIGA tuzilgan Bunday turdagi shartnomalarda asosan nizoni hal qilish vositasi sifatida muzokara va arbitraj tanlanadi. Ko’pincha tomonlar kelgusida aloqalarni saqlab qolish maqsadida avvalo muzokara usulidan foydalanib ko’rishadi. Bu usul foyda bermagan taqdirda nizolarni arbitraj tartibida ko’rib chiqishadi. Bu O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida” gi qonun hujjatida ham keltirib o’tilgan. Arbitrajga murojaat qilishning asosiy qoidalari Vashington konvensiyasi normalari orqali tartibga solingan bo’lib. Konvensiyaning 36-moddasida ahdlashuvchi davlatlar arbitrajga murojaat qilishdan oldin bosh kotibni yozma ravishda ogohlantirishi lozim. Shuningdek tomonlar o’rtasida arbitraj muhokamasida ko’rib chiqish bo’yicha o’zaro kelishuv mavjud bo’lishi kerak. 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida” gi qonun 63-moddasi ham arbitraj asosida nizoni hal qilishga xuddi shunday tartib belgilagan. Unga ko’ra “Investitsiyaviy nizolarni mediatsiya va muzokara tartibda hal qilish mumkin bo’lmagan taqdirda, agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida va (yoki) investor hamda O’zbekiston Respublikasi o’rtasida tuzilgan shartnomada tegishli va haqiqiy arbitraj sharti nazarda tutilgan bo’lsa, bunday nizo xalqaro arbitraj vositasida hal etilishi mumkin.

Faqat O’zbekiston Respublikasining imzolangan va amaldagi xalqaro shartnomalari va (yoki) investor hamda O’zbekiston Respublikasi o’rtasida xalqaro arbitrajga murojaat qilish paytida tuzilgan shartnoma doirasidagi yozma rozilik O’zbekiston Respublikasining investitsiyaviy nizoni arbitraj yo’li bilan hal etishga bo’lgan roziligi hisoblanadi.”⁵ Bundan ko’rinib turibdiki asosiy ahamiyat ikki tomon o’rtasidagi kelishuvga borib taqalmoqda. Bugungi kunda birgina O’zbekistonning 50 dan ortiq Investitsiyani rag’batlantish va himoya qilish haqidagi shartnomalari mavjud bo’lib, bulardan 47 tasi amalda. Investitsion nizolarni hal qilish markazi (ICSID) tomonidan ham uushbu shartnomalar asosida qator vakolati doirasida ishlar ko’rib chiqilgan. Quyidagi jadvalda ulardan ba’zilari bilan tanishimiz mumkin.

Ish raqami	Da’vogar	Javobgar	Ish holati
ARB/10/3	Metal-Tech Ltd	O’zbekiston Respublikasi	Ko’rib chiqilgan
ARB(AF) 12/7	Mobile Tele Systems OISC	O’zbekiston Respublikasi	Ko’rib chiqilgan

⁵ 2019-yil 25-dekabrda “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to’g’risida” gi qonun (<https://lex.uz/docs/-4664142>)

ARB 13/26	Spentex Netherlands	O'zbekiston Respublikasi	Ko'rib chiqilgan
ARB 13/6	Vladislav Kim va boshqalar	O'zbekiston Respublikasi	Ko'rib chiqilmoqda ⁶

Xulosa

Maqola yakunida xulosa qilishda maqoladan ko'zlangan maqsadga yana bir bora qaytsak. Maqala bevosita dunyo iqtisodiyotida XX va XXI asrda dunyo iqtisodiyotida shiddat bilan o'sayotgan investitsiyaviy munosabatlar va ularning negizida vujudga kelayotgan investitsiyaviy nizolarni eng optimal hal qilish vositasi- investitsion arbitrajlarda ko'rib chiqilish masalasi tahlil etildi. Tahlil natijalariga ko'ra investitsion arbitraj yurisdiksiya olishining daslabki sharti avvalo munosabatda **investitsion nizo mavjudligi**. Qanday holat investitsion nizo deb baholanishi maqola davomida zarur hujjatlar asosida tahlil qilindi. Ikkinchidan **murojaat qilinayotgan organining bu masalaga yechim berishdagi vakolati mavjudligi** 1965 yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington konventsiyasida investitsion nizolarni hal qilish markazi (ICSID) ni investitsion nizolarni hal qilishdagi vakolati aytib o'tilgan. Uchinchi shart sifatida ta'kidlaganimiz tomonlar o'rtasida ishni arbitraj tartibida ko'rib chiqish bo'yicha **kelishuvning mavjudligi**. Bu masala maqola davomida bir emas, bir nechta xalqaro va milliy hujjatlar asosida ochib berildi. Shu o'rinda qo'shimcha ravishda investitsion nizolarni hal qilish sohasida muamo bo'layotgan bir jihatga ham qisqa ravishda to'xtalib o'tishimiz lozim. Ko'pincha ishni ko'rib chiqishda yurisdiksiya mavjudligi va nizoni hal etishda yurisdiksiya o'rtasida tafavutlar mavjud. Ko'rib chiqishda yurisdiksiya nizoni hal etishdagi yurisdiksiyadan farqli o'laroq nizoni qabul qilinsada unnda nizo yakuni bo'yicha hal qiluvchi qaror chiqarilmaydi.

Taklif

Arbitraj usulida nizolarni hal qilsih eng optimal va tez, adolatli nizolarni hal qilinish vositasi bo'lishiga qaramay ba'zi kamchiliklarga ega. Bu kamchilik maqolada ham eslatib utganimdek ikkinchi taraf rozi bo'lsagina yurisdiksiya olish bilan bog'liq. Bu shuni anglatadiki, garchi holatda aniq nizo mavjud bo'lsa ham, arbitraj bu borada vakolatli bo'lsa ham ikkinchi taraf roziligisiz ishni arbitraj yordamida hal qil olmaydi. Bu tabiiyki da'vogar tomonga noroziligiga sabab bo'ladi va ba'zi noqulayliklarni tug'diradi. Bu kamchilikni bartaraf etishda shuki, taklif qilgan bo'lardimki, ishni arbitraj mukokmasiga kiritishda arbitraj kelishuvi bo'lishligi kerak degan qoidani olib tashlash lozim. Bu investorlarni har qamdy payta o'z huquqlarini himoya qila olishi va

⁶ Investitsiya huquqi. Darslik. 2019 ,295-bet. (Tsul.library.uz)

investorlik kafolatlarini oshirgan bo'lar edi. Mening fikrimcha ishni arbitraj muhokmasida ko'rishda investitsion nizo bo'lishligi va ushni nizo arbitraj vakolat doirasiga kirisishi kifoya.

Foydalanilgan ma'lumotlar:

- 1965 yildagi "Davlatlar va boshqa davlatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilish to'g'risida"gi Vashington konventsiyasi
- 1985-yildagi Seual konvensiyasi
- 1958-yildagi Unsetral namunaviy qonun loyihasi
- 1985-yildagi Unsetral namunaviy qonun loyihasi
- 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonun
- Investitsiya huquqi. Darslik. 2019
- Jon Burk, Jowittning ingliz huquqi lug'ati (Sweet & Maxwell, 1977), jild. 1, 1034; Bryan A. Garner, Black's Law Dictionary (G'arbiy, 1999); Zachari Duglas, Investitsion da'volar bo'yicha xalqaro hu (Kembrij universiteti nashriyoti, 2009)
- Fontanelli, F. (2017). Jurisdiction and Admissibility in Investment Arbitration: The Practice and the Theory, *Brill Research Perspectives in International Investment Law and Arbitration*, 1(3-4), 1-193. doi: <https://doi.org/10.1163/24055778-12340003>

...ni. Maykl Vaybel, 2014